

ekanligi e’tirof qilindi. Konferensiyada ushbu muammoni tadqiq qiluvchi xalqaro ilmiy kengash tuzildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi, 2020, 25-yanvar, №19 (7521) soni.
2. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2021-yil, 464 -bet
3. Amridinova D.T. Maxmudxo‘ja Bexbudiy va Abduqodir Shakuriy ijodida til, tarbiya va jamiyat islohati masalalari.// Xozirgi dunyo lisoniy kiyofasi va tilshunoslikning metodologik asoslari. //Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari.- Samarqand. 2007.
4. “Kengash”.1917-yil
5. “Ulug‘ Turkiston”. №3.1917-yil 5-may.
6. Hurriyat. №10. 1917
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/jadidchilik-ta-limotining-yoshlar-tarbiyasidagi-ahamiyati/pdf>
8. <https://www.facebook.com/groups/246149995752425/permalink/882256818808403/>
9. <http://uzzalqharakati.com/archives/64073>
- 10.<https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jadidchilik>

Mehr beraqoling ayolga...

Zamina Umarova Ixtiyorovna

Jizzax viloyati

Do‘stlik tumani

19- boshlang‘ich ta’lim

maktabi boshlang‘ich sinf

o‘qituvchisi

Farzandingiz opichlab yurib,

Nozik qaddi dol bo‘lgan,-ayol.

Tongda turib tabassum qilib,
Shirinso‘zga zor bo‘lgan,-ayol...

Goho g‘amgin,chehrasi nursiz,
Yo‘lingizni zor kutgan ayol.
Bildingizmi, ahvolini hech,
Siz shirakayf surganda xayol?

Sochlariqa changal solasiz,
Alamingiz olmoqqa shaysiz.
Lekin,ayting u yo‘q olamda,
Uzog‘i necha kun yashaysiz?!

Xorib, charchab kelasiz ba’zan,
O‘rtoqlarning gap gashtagidan.
Uyda kutgan mushtipar qadri,
Past bo‘ladi „it po’stagidan”.

Shumi, birga umr surmoqlik,
Shumi, baxtning gul qasidasi?!
Yo‘qmi qadri, yostiqdoshingiz,
Orzumidi,baxt nashidasi?!

Ex, o‘zini mardga mengzagan,
Alpomishday norg‘ul erkaklar...
Ayol-on, Ayol-oringiz,
Uni xo‘rlab bo‘lmang ermaklar.

Ulg‘aytirar oqil farzandlar,
Millat sha’ni uning qo‘lida.
Baxtga belang yon atrofini,
Gullar unsin, yurgan yo‘lida.

Bermang ,unga tilloyu zarlar,
Ne beray, deb botmang xayolga.
Har tong o‘pib gul yanog’idan,
Mehr beraqoling , Ayolga...!

Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari

Xalilova Charos Shamsiddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti magistr talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolamizda Imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishslashning psixologik xususiyatlari, ularni qo‘llab-quvvatlash, ko‘maklashish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, ehtiyoj, qobiliyat, ijtimoiy muhit, xulq-atvor buzilishlar, korreksiya, ko‘nikmalar, nuqson, muloqot, integratsiya, logopedik tekshiruvlar.

Hozirgi kunda jamiyatimizda va jahon ta’lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalarga o‘ziga xos tibbiy-psixologik yordam ko‘rsatish masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada davlatimiz tomonidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo‘lib, 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlar, 2019-yil 7-sentabrdagi PQ-4440-son «Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorlar shular jumlasidandir.